

## GERMANIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MIKROBIZNES O'YINI SIMULYATSIYASI

*Imomboyeva Oyminisa Munisovna*

*Xo'jaobod tumani politexnikumi  
biznes asoslari fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Germaniya metodikasi asosidagi “Biznes asoslari” o‘quv dasturi tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Professional ta’lim tizimi o‘quvchilarini xorijiy tajribalar asosida moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan “German Sparkassenstiftung for International Cooperation” tashkiloti bilan hamkorlikda professional ta’lim tizimi pedagog kadrlarini Germaniya metodikasi asosida tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan.

### KIRISH

Germaniya ta’lim tizimi butun dunyoda yuqori sifatli va innovatsion yondashuvlar bilan tanilgan. Germaniya iqtisodiyoti, xususan, kichik va o‘rta biznes sektori o‘zining samarali va raqobatbardosh modeliga asoslangan. Bu muvaffaqiyatning asosi, albatta, ta’lim tizimining sifatli va o‘zgaruvchan bo‘lishidadir.

Xususan, Germaniyada yosh tadbirkorlarni tayyorlashda foydalaniladigan biznes asoslari fanining o‘qitilishida texnologiyalarning o‘rni katta. Germaniyaning ta’lim

tizimi iqtisodiy va biznes ta’limini butun mamlakat bo‘ylab yuqori darajada olib boradi. Ta’lim jarayonida yoshlarni innovatsion va kreativ fikrashga, yangi g‘oyalar ishlab chiqishga, bozorni tahlil qilishga va samarali biznes strategiyalarini ishlab chiqishga yo‘naltirishadi. Bu esa o‘z navbatida, Germaniya iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi.

Hamkorlik doirasida joriy yili 19 nafar professional ta’lim tizimi pedagog-kadrlari Germaniyaning Landshut shahrining “Sparkassenakademie Beyern” akademiyasida Germaniyada dual ta’lim tizimi, “WISO darsi” misolida o‘quv jarayonlari, ta’lim dasturlarini ishlab chiqish metodikalari, ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha xalqaro ekspertlar tomonidan malaka oshirdilar.



Mazkur tajribalar asosida xalqaro ekspertlar bilan birgalikda professional ta'lif muassasalari o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan simulyatsion va kompetensiyaga asoslangan "Biznes asoslari" o'quv dasturi ishlab chiqildi. Ushbu o'quv dasturining maqsadi, o'quvchilarga o'z biznes-g'oyasini amalga oshirish va shaxsiy daromadga ega bo'lish hamda daromadlarini oshirish uchun o'zining shaxsiy tadbirkorlik korxonasiga asos solishga o'rgatishdan iborat.

O'quv dastur 3 ta "simulyatsion o'yin"dan iborat bo'lib, ular "Jamg'arma o'yini" simulyatsiyasi 18 soat bo'lib, shundan, 12 soat biznes o'yin, 6 soat nazariy dars; "Mikro biznes o'yini" simulyatsiyasi 30 soat bo'lib, shundan, 22 soat biznes o'yin, 8 soat nazariy dars; "Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish" o'yini 12 soat bo'lib, shundan, 6 soat nazariy dars, 6 soat amaliy mashqlardan iborat etib belgilangan.

"Biznes asoslari" o'quv dasturi 2023/2024-o'quv yilidan joriy etilib, unda o'quv jarayoni maxsus jihozlangan auditoriyada tashkil etilishi, auditoriyada dars jarayonlari bir vaqtda ikki nafar pedagoglar tomonidan, kichik guruhlarga ajratilgan holda olib borilishi, shuningdek, har bir o'quv jarayoni simulyatsiya uchun zarur bo'lgan moddiy va metodik ta'minot vositalari yordamida tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bunda Germaniyaning "German Sparkassenstiftung for International Cooperation" tashkiloti hududdagi barcha professional ta'lif muassasalarini "Jamg'arma o'yini", "Mikro biznes o'yini", "Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish" simulyatsion o'yinlari uchun zarur bo'ladigan moddiy va metodik ta'minot vositalari bilan ta'minlashni o'z oldiga maqsad etib belgilab qo'ygan.

"Biznes asoslari" o'quv dasturini joriy etishda o'quv jarayonlari Germaniya tajribasidan kelib chiqib simulatsion o'yinlar, Noy-hau sessiyalar, enerjayzerlar,

amaliy mashqlar, ishtirokchilarning taqdimotlari va feedback kabi usullardan foydalanib tashkil etiladi.

“Biznes asoslari” o‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanishi belgilangan. Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlar, ishbilarmonlik-vaziyatli rolli o‘yinlarni bajarish orqali o‘quvchilarning o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi.

### Yangiliklar.

Germaniya jamg‘arma kassalari fondi bilan hamkorlikda seminar-trening o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi tomonidan Germaniya jamg‘arma kassalari fondi (German Sparkassenstiftung) bilan hamkorlikda bugungi yoshlarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirish maqsadida Toshkent davlat transport universitetida “Mikro biznes o‘yini” bo‘yicha seminar-trening tashkil etildi.

Mazkur “Mikro biznes o‘yini” treningining maqsadi:

- Tadbirkorona fikrlash va harakat qilish, maqsad sari intilish;
- Mikrofirmalarning qiyinchiliklari va imkoniyatlari hamda ularga qanday munosabatda bo‘lish;
- Buxgalteriya hisobi va nazorat qilishning asosiy prinsiplari va simulyatsiya (o‘yin) davomida moliyaviy vositalardan foydalanish yo‘llari;
- Mijozlarni chuqurroq tushunish va marketing bo‘yicha asosiy bilimlarni rivojlantirish;
- Bozor dinamikasi va raqobatni anglash hamda mustaqil qarorlarni qabul qilish;
- Mikro moliya tashkilotlari va mijozlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish masalalari va ularning oqibatlarini anglash.

Shuningdek, ushbu seminarlar yoshlarni tadbirkorlikka jalg etish, ularda sohaga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish va ko‘nikma hosil qilishdagi ahamiyatini inobatga olib, boshqa hududlardagi ta’lim muassasalarida ham bosqichma-bosqich tashkil etilishi rejalashtirilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlari.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 1996 yil 25 aprel.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 14 aprel 1999 yil.
5. “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2000 yil 21 mart.